

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

esa bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: “Nice dress/shirt”, “It suits you well” yoki “What a nice dress/shirt”.

Chaqaloq tug‘ilganida “Umri bilan, rizqi bilan bergan bo‘lsin” “Chaqaloq muborak bo‘lsin” singari iliq tilaklar bildiriladi. Ingliz tilida “May Allah bless the newborn”, “May the baby live a long life” kabi qutlovlarni kuzatishimiz mumkin.

Agar suhbat taomlanayotgan paytda qurilsa, “Have a good appetite” (yoqimli ishtaha) “Help yourself” (osh bo‘lsin, olib o‘tiring) singari fatik muloqotlar ham qo‘llaniladi. Bunday fatik nutqiy aktlarga javoban esa “Thank you” (Rahmat) javobini eshitish mumkin.

Uzr so‘ralganda, so‘zlovchi “Sorry”, “I am sorry” (Uzr, kechiring) jumalari qo‘llanilib, uning javobi “Not at all”, “It’s O.K.” (hechqisi yo‘q) shaklida uchraydi. Ba’zan uzr so‘ralganda uning sababi keltirilishi ham mumkin. Masalan. “Sorry to disturb”, “Sorry for bothering you” (bezovta qilganim uchun uzr).

Xulosa

Bizning tadqiqotimiz natijasi sifatida quyidagi xulosalarni hosil qilishimiz mumkinki, fatik nutqiy aktlar tinglovchining e’tiborini kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi hamda suhbatning maqsadiga qarab turli fatik muloqotlardan foydalaniladi. Suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi va suhbatdagi rolga qarab aynan qanday fatik muloqotlardan foydalanish aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Austin J.L. How to do things with words. The William James Lectures delivered at Harvard University in 1955. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 166 p.
2. Bakhtin M.M. Aesthetics of verbal creativity. - M.: Art, 1979. - 424 p.
3. Van Dijk T.A. Studies in the Pragmatics of Discourse. — The Hague: Mouton, 1982. — 331 p.
4. Kobozeva I.M. The theory of speech acts as one of the variants of the theory of speech activity // New in foreign linguistics. - M.: Progress, 1986. - Issue. 17. - pp. 7-21.
5. Gabdreyeva N.V. Mezhyazykovye leksicheskiye korrelyatsii: semasiologicheskiye otnosheniya//Nauchnoye obozreniye: gumanitarnye problemy. – M., – 2016. – No. 6.– P. 112–116.
6. Zinnatullina G.Kh. Osobennosti upotrebleniya prozvisch v proizvedeniyakh khudozhestvennoy literatury//Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. Seriya “Filologicheskiye nauki”, – 2013. – No. 4 (79).– P. 72–77.
7. Formanovskaya N.I. Russky rechevoy etiket: lingvistichesky i metodichesky aspekty 1987.– M.: Russky yazyk,– 1984. – 158 p.

DEMETER VA PERSEPHONE MIFIDA ONA–QIZ MUNOSABATLARI: ARXETIPIK MODEL DAN INDIVIDUAL PSIXOLOGIYAGA O‘TISH

F.I. Nuriddinova

Namangan Davlat Chet tillar Insituti tadqiqotchisi:

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi yunon mifologiyasiga mansub Demeter va Persephone haqidagi mif asosida ona–qiz munosabatlarining arxetipik va psixologik talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu mifda aks etgan an’anaviy arxetipik modelning zamonaviy psixologik yondashuvlar, xususan, individuatsiya va subyektivlik nazariyalari doirasida qanday transformatsiyaga uchraganini aniqlashdan iborat.

Maqolada Demeter obrazi ona mehrining, himoya va nazoratning ramzi sifatida, Persephone esa mustaqillikka intiluvchi va o‘z identitetini izlovchi subyekt sifatida talqin

qilinadi (Jung, 1968; Freud, 1953; Butler, 2020). Ularning o‘zaro munosabatlari nafaqat uyg‘unlik va bog‘liqlik, balki ajralish, ziddiyat va psixologik o‘rish jarayonlari bilan ham izohlanadi.

Shuningdek, maqolada mifologik syujetning zamonaviy adabiyotda, ayniqsa Louise Glück poetikasida qayta talqin qilinishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Demeter–Persephone mifologik modeli bugungi kunda inson ruhiyati, ayniqsa ona–qiz munosabatlaridagi murakkab psixologik jarayonlarni tushuntirishda muhim nazariy va badiiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Demeter, Persephone, ona–qiz munosabatlari, arxetip, individuatsiya, psixologik talqin, yunon mifologiyasi, zamonaviy adabiyot, Louise Glück, subyektivlik.

Abstract

This paper analyzes the mother–daughter relationship in the myth of Demeter and Persephone from both archetypal and contemporary psychological perspectives. The primary objective is to identify how the traditional archetypal structure embedded in the myth has been transformed within modern theoretical frameworks, particularly those of individuation and subjectivity.

The study reveals that Demeter symbolizes maternal care, protection, and control, whereas Persephone represents the subject in pursuit of autonomy and self-identity. Their relationship is interpreted through the dynamics of attachment and separation, harmony and tension, as well as continuity and transformation. Additionally, the article explores the reinterpretation of this myth in contemporary literature, especially in the works of Louise Glück.

Keywords: Demeter, Persephone, mother–daughter relationship, archetype, individuation, subjectivity.

Kirish

Qadimgi yunon mifologiyasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy qatlamlarini aks ettiruvchi madaniy va ma’naviy meros hisoblanadi (Campbell, 1949; Eliade, 1959). Unda inson hayoti, tabiat hodisalari va ijtimoiy munosabatlar ramziy obrazlar orqali ifodalangan bo‘lib, bu miflar keyingi davr adabiyoti va falsafasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan (Graves, 1955).

Demeter va Persephone haqidagi mif ona–qiz munosabatlarining universal modeli sifatida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Dastlab u tabiiy jarayonlarni izohlashga xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik inson psixologiyasi va oilaviy munosabatlarning chuqur qatlamlarini ochib beruvchi tizimga aylangan (Jung, 1968; Neumann, 1955).

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ushbu mif psixoanaliz, arxetip nazariyasi va adabiy tanqid doirasida o‘rganilmoqda (Chodorow, 2019; Benjamin, 2018). Ona va qiz o‘rtasidagi bog‘liqlik, ajralish va individuatsiya jarayonlari ushbu mif orqali chuqur tahlil qilinadi (Jung, 1968; Freud, 1953). Shu jarayonlar orqali subyektivlik, identitet va ichki konfliktlar kabi tushunchalar yoritiladi (Butler, 2020; Han, 2017).

Asosiy qism

Qadimgi yunon mifologiyasida Demeter va Persephone o‘rtasidagi aloqa ona va qiz arxetiplarining klassik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu modelda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik hayot davomiyligini ifodalasa, ajralish esa rivojlanishning zaruriy bosqichi sifatida qoraladi.

Carl Gustav Jung ta’limotiga ko‘ra, “buyuk ona” arxetipi ikki tomonlama tabiatga ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham himoya qiluvchi, ham cheklovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Demeter aynan shu xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi.

Persephone esa o‘zgarish va psixologik o‘rish jarayonining timsoli bo‘lib, uning yerosti olamiga tushishi ichki transformatsiyaning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Psixologik nuqtai nazardan, ona va qiz o’rtasidagi ajralish jarayoni shaxs shakllanishining muhim bosqichi hisoblanadi. Sigmund Freud nazariyasiga ko’ra, dastlabki oilaviy munosabatlar keyingi psixik rivojlanishga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli Persephonening ajralishi og’riqli bo’lsa-da, uning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy talqinlarda ushbu mif insonning ichki ziddiyatlari, begonalashuv hissi va identitet izlanishlari bilan bog’lanadi. Persephone ikki olam o’rtasida mavjud bo’lish orqali zamonaviy subyektivlikning ko’p qatlamli tabiatini ifodalaydi. Adabiyotda esa, ayniqsa Louise Glück ijodida, bu mif ichki kechinmalar, yo’qotish va mustaqillik o’rtasidagi murakkab munosabat sifatida qayta talqin qilinadi.

Natijalar va muhokama

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, Demeter va Persephone mifologik modeli ona-qiz munosabatlarining universal strukturasi aks ettiradi. Arxetip nazariyasi nuqtai nazaridan, bu model inson ongining chuqur qatlamlariga xos umumiy psixologik naqshlarni ifodalaydi.

Ajralish jarayoni ushbu munosabatlarning markaziy elementi bo’lib, u konflikt manbai sifatida namoyon bo’lishi bilan birga, shaxsiy rivojlanish uchun zarur shart hisoblanadi. Shu jihatdan, Persephonening tajribasi individuatsiya jarayonining ramziy modeli sifatida qaraladi.

Zamonaviy yondashuvlarda mazkur mif insonning ichki bo’shligi, begonalashuvi va identitet inqirozini tushuntirishda samarali konseptual vosita sifatida baholanadi. Ayniqsa, uning ikki olam o’rtasidagi mavjudligi zamonaviy shaxsning fragmentatsiyalashgan ongini ifodalaydi. Bundan tashqari, adabiy talqinlar ushbu mifning yangi mazmun bilan boyiganini ko’rsatadi, bu esa uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Demeter va Persephone haqidagi mif dastlab tabiiy jarayonlarni izohlovchi model bo’lgan bo’lsa-da, keyinchalik inson psixologiyasini tushuntirishda muhim nazariy vositaga aylangan.

Demeter ona mehrining va nazoratning murakkab uyg’unligini ifodalasa, Persephone mustaqillik va o’zlikni anglash jarayonining ramzi sifatida namoyon bo’ladi. Ular o’rtasidagi munosabat esa rivojlanishning dialektik modelini tashkil etadi.

Zamonaviy talqinlar ushbu mifni individual tajriba va subyektivlik bilan bog’lab, uning yangi ma’nolarini ochib beradi. Shu sababli, ushbu mif bugungi kunda ham inson ruhiyatini tushuntirishda dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Carl Gustav Jung. (1968). *The archetypes and the collective unconscious* (2nd ed.). Princeton University Press.
2. Sigmund Freud. (1953). *The standard edition of the complete psychological works of Sigmund Freud* (Vols. 1–24). Hogarth Press.
3. Erich Neumann. (1955). *The Great Mother: An analysis of the archetype*. Princeton University Press.
4. Simone de Beauvoir. (1949). *The second sex*. Gallimard.
5. Louise Glück. (2006). *Averno*. Farrar, Straus and Giroux.
6. Robert Graves. (1955). *The Greek myths*. Penguin Books.
7. Joseph Campbell. (1949). *The hero with a thousand faces*. Princeton University Press.
8. Mircea Eliade. (1959). *The sacred and the profane: The nature of religion*. Harcourt.

**ASPEKTGA ASOSLANGAN SENTIMENT TAHLILIDA ASPEKTLARNI ANIQLASH
VA ULARNING TURLARI**
Malika Suyunova Odil qizi